



XALQARO MEHNAT STANDARTLARINI MILLIY QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA QILISHNING TASHKILIY-INSTITUTIONAL JIHATLARI

G'offorova Kamola Shuxrat qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura talabasi
email:gofforovakamola2020@gmail.com

Kirish

Odatda xalqaro huquqiy me'yorlar ma'lum bir mamlakat qonunchiligiga implementatsiya qilinarkan, ushbu jarayon konvensiya yoki boshqa xalqaro huquqiy hujjatning mamlakat qonunchiligiga to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinishi yoki mazkur hujjat qabul qilinishida ma'lum bir tartib va bosqichlarga amal qilinishi kerakligi mamlakatning bizga ma'lum bo'lgan xalqaro huquqiy hujjat qabul qilinishidagi ikki tamoyildan biriga amal qilishini ko'rsatadi. Ushbu tamoyillar avtomatik inkorporatsiya va qonuniy inkorporatsiya tamoyillari deb atalib, ma'lum bir davlatdagi xalqaro hujjat qabul qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatadi. Masalan, biror mamlakat tomonidan xalqaro konvensiya yoki tavsiyaviy xususiyatga ega hujjat qabul qilingan vaqtda mamlakat qonunchiligiga ushbu hujjatni implementatsiya qilish jarayonida, agar ma'lum bir mamlakatlarda qabul qilinayotgan konvensiyani mamlakatda joriy qilish uchun alohida qonun hujjati qabul qilish talab etilsa, ba'zi mamlakatlarda konvensiya qoidalari mamlakat qonunchiligiga to'g'ridan to'g'ri ya'ni avtomatik inkorporatsiya tamoyili asosida qabul qilinishini tushunish mumkin.

Avtomatik inkorporatsiya tamoyiliga ko'ra konvensiya ratifikatsiya qilingan (ya'ni mamlakat tomonidan rasmiy ravishda ma'qullangan) zahoti avtomatik tarzda milliy qonunchilikning bir qismiga aylanadi va yangi ichki qonun qabul qilish talab etilmaydi. Bunday tizim ko'proq monistik huquqiy tizimga ega davlatlarda uchraydi. Masalan, Fransiya yoki Meksika kabi mamlakatlarda xalqaro konvensiyaning qabul qilinishi uning amalga avtomatik tarzda tatbiq etilishi xususiyati bilan farqlanib



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

turadi¹. Ushbu tamoyil xalqaro hujjatning mamlakat qonunchiligiga qanchalar oz fursatda joriy qilinishi mumkinligini bildirsada, ma'lum bir jabhalarda o'zini oqlay olmagan. Ya'ni avtomatik inkorporatsiya tamoyiliga amal qiluvchi mamlakat tomonidan ma'lum bir xalqaro hujjat to'g'rida to'g'ri qabul qilinishi kerak bo'lgan jarayonda mamlakat tomonidan konvensiya qoidalarini qonunchilikka to'g'ridan to'g'ri qabul qilishning iloji yo'q ekanini ma'lum bo'lgan va mamlakat tomonidan mazkur konvensiyani joriy qilish uchun qonun qabul qilinishi zarur ekanini ma'lum bo'lib qolgan va mazkur qonun amalda qabul qilingan. Ushbu misolni Meksika va Kolumbiya tajribasida ko'rish mumkin bo'lib, bu haqida quyida to'xtalib o'tamiz. Qonuniy inkorporatsiya tamoyiliga ko'ra, mamlakat xalqaro konvensiya qoidalarini o'z hududida kuchga kiritish uchun maxsus ichki qonun qabul qilishi zarur bo'ladi. Agar konvensiya qabul qilinish jarayonida ushbu qadam tashlanmasa, konvensiya mamlakat ichida huquqiy kuchga ega bo'lmaydi ya'ni ratifikatsiya qilingan hujjat biror qonun hujjati qabul qilinmasdan turib kuchga kirmaydi. Bunday yondashuv dualist huquqiy tizimga ega davlatlarda keng tarqalgan, masalan, Buyuk Britaniya va Kolumbiya kabi mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan tartib shunga o'xshash. Ratifikatsiyadan o'tgan konvensiyalarni milliy qonunchilikka kiritishning o'zi ularni ichki darajada amalda qo'llanilishi uchun yetarli emas, ayniqsa, konvensiya tarkibida o'zi bajarilmaydigan (non-self-executing) moddalar bo'lsa. Ya'ni, qonun chiqaruvchi yoki boshqa maxsus choralarni talab qiladigan moddalar, jumladan, ayrim standartlarni aniqroq belgilash, ma'muriy tizim yaratish, nazorat yoki jazolar belgilash zarur bo'lgan holatlarda biz yuqorida keltirgan avtomatik inkorporatsiya tushunchasidan biroz chekiniladi. Ya'ni, qabul qilinayotgan ma'lum bir konvensiyaning moddalarida ularni avtomatik tarzda ijroga kiritishga bo'lgan imkoniyat mavjud bo'lmagan hollarda ushbu tamoyilni qo'llashning iloji yo'q ekanini tushuntiriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarni o'rganar ekanmiz, o'z-o'zidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro mehnat huquqiga oid konvensiyalarni ratifikatsiya qilish jarayoni yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarning aynan qay biriga o'xshashligi

¹ International Labour Conventions and National Law. The Effectiveness of the Automatic Incorporation of Treaties in National Legal Systems VIRGINIA A. LEARY Professor of International Law Faculty of Law and Jurisprudence State University of New York at Buffalo, U.S.A.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

borasida savol tugʻilishi tabiiy. Xalqaro konvensiyalarning Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilinish jarayoniga amaliy baho beradigan boʻlsak, mamlakatimizda ushbu jarayonda qonuniy inkorporatsiya tamoyiliga hamda avtomatik inkorporatsiya tamoyillariga birday amal qilinishi guvohi boʻlishimiz mumkin. Negaki, yuqorida keltirib oʻtilganiday Xalqaro Mehnat Tashkilotining Oʻzbekiston tomonidan 25 ta konvensiya va 1ta protokoli ratifikatsiya qilingan, ammo ularning faqat 22 tasi qonunchilik tizimiga tatbiq etilgan boʻlsa 3ta konvensiya kuchga kirishi 2026-yilga moʻljallangan. Shuningdek, har bir konvensiya implementatsiya qilinganda mamlakatimizda maʼlum bir yangi qonun yoki qonun hujjatiga oʻzgartirish kiritilishini va bu ancha vaqt talab etishini amalda koʻrishimiz mumkin. Bu esa, mamlakatimizda xalqaro mehnat huquqiga oid konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar qabul qilinishida qonuniy inkorporatsiya tamoyiliga amal qilinishini koʻrsatadi.

Xalqaro mehnat standartlarini Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishda davlat tashkilotlarining ishtiroki

Xalqaro mehnat standartlarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish jarayonida qonun bilan belgilangan tartibiga koʻra, turli davlat organlari ishtirok etadi. Har bir organ oʻzining vakolatlari doirasida ushbu jarayonning muayyan bosqichlarini amalga oshiradi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga koʻra xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va ularni denonsatsiya qilish ham Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakolatlariga kirishi belgilangan boʻlib, xalqaro mehnat standartlarini implementatsiya qilishda ham asosiy vakolatli organ Parlament hisoblanadi. Oliy Majlisning Mehnat, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy masalalar qoʻmitasi xalqaro mehnat standartlari boʻyicha maxsus ekspertiza olib boradi². Qoʻmita qonun loyihalarini tayyorlash, ularni xalqaro standartlarga muvofiqligini tekshirish va parlament muhokamalariga tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi xalqaro mehnat standartlarini amalga oshirishning ijroiya organi sifatida faoliyat yuritadi. Hukumat qabul qilingan qonunlarni amaliyotga tatbiq etish, tegishli qoidalar va tartiblarni ishlab chiqish,

² Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. <https://parliament.gov.uz/committees/2>



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

davlat dasturlarini amalga oshirish vazifalarini bajaradi³. O‘zbekiston Respublikasining Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xalqaro mehnat standartlarini implementatsiya qilishda markaziy rol o‘ynaydi. Vazirlik Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorlik qilish, konventsiyalar bo‘yicha hisobotlar tayyorlash, milliy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini samarali olib boradi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mehnat huquqlari va qonunchiligini takomillashtirish, bandlik siyosatini amalga oshirish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasini ta‘minlash, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat yuritadi.⁴Keltirib o‘tilganlardan tashqari, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi ishchilar manfaatlarini himoya qilish va xalqaro mehnat standartlarini amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Federatsiya Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorlik qilish, ishchilar huquqlarini himoya qilish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini olib bormoqda. Agar vaziyatga boshqa tarafdin yondashadigan bo‘lsak, Xalqaro Mehnat Tashkiloti tizimidagi tripartizm tamoyiliga ko‘ra biz ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘lgan navbatdagi mavzu bu ish beruvchilar tashkilotlarining faoliyati hisoblanadi.

Xulosa

Xalqaro mehnat standartlarini O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli huquqiy, siyosiy hamda tashkiliy-institutsional faoliyatni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda ushbu yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilayotganini kuzatish mumkin. Ya‘ni, ayrim konvensiyalar avtomatik tarzda qabul qilinsa, boshqa ko‘plab konvensiyalar maxsus qonunchilik hujjatlari qabul qilish orqali qonuniy inkorporatsiya tamoyili asosida qabul qilinmoqda. Bu esa xalqaro huquq normalarining milliy huquqiy tizim bilan uyg‘unlashuvi uchun zarur bo‘lgan moslashuvchanlik va yondashuvlarning xilma-xilligini taqozo etadi.

Shu bilan birga, xalqaro mehnat standartlarini tatbiq etishda faqat huquqiy mexanizmlar emas, balki samarali tashkiliy va institutsional tizim ham muhim

³ Содииков, К.И. Социальное партнерство в сфере труда. - Т.: Фан, 2020.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. <https://gov.uz/oz/bv/pages/about>



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tajribasida bu jarayonda Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va ish beruvchilar tashkilotlarining faol ishtiroki muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z vakolatlari doirasida xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilishdan tortib ularni amaliyotga joriy etishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda faol qatnashadilar. Xalqaro mehnat standartlarining amaliy tatbiqi nafaqat mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, balki ijtimoiy adolat, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. International Labour Conventions and National Law. The Effectiveness of the Automatic Incorporation of Treaties in National Legal Systems VIRGINIA A. LEARY Professor of International Law Faculty of Law and Jurisprudence State University of New York at Buffalo, U.S.A.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi.
<https://parliament.gov.uz/committees/2>
3. Соди́ков, К.И. Социальное партнерство в сфере труда. - Т.: Фан, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi.
<https://gov.uz/oz/bv/pages/about>